

**NAMANGAN VILOYATI QISHLOQ HUDUDLARINING RESURS
SALOHIYATI IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORINI
RIVOJLANTIRISHNING ZARURIY SHARTI SIFATIDA
(YENGIL SANOAT KLASTERLARI MISOLIDA)**

Tursunpo‘latov Farxodjon Xoshimjon o‘g‘li
mustaqil tadqiqotchi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimiz hukumati tomonidan respublika sanoatining tarmoqlar tarkibida muhim o‘rin tutib kelayotgan yengil sanoatni rivojlantirishga, uni zamon talablari asosida texnik-texnologik modernizatsiya qilishga, diversifikatsiyalashga, ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirishga e‘tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** meodernizatsiya, diversifikatsiya, yengil sanoat, transport-logistika imkoniyatlar, klaster, infratuzilma.*

**THE RESOURCE POTENTIAL OF RURAL AREAS OF NAMANGAN
REGION AS A PREREQUISITE FOR THE DEVELOPMENT
OF THE AGRARIAN SECTOR OF THE ECONOMY
(ON THE EXAMPLE OF LIGHT INDUSTRIAL CLUSTERS)**

***Abstract:** This article focuses on the development of light industry by the government of our country, which occupies an important place in the structure of industries of the Republic, its technical and technological modernization, diversification, development of production capacity on the basis of modern requirements.*

***Keywords:** modernization, diversification, light industry, transport-logistics opportunities, cluster, infrastructure.*

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimiz sanoatining to‘ng‘ich tarmoqlaridan biri bo‘lgan yengil sanoatning rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Bu borada eng avvalo, xorij kapitalini jalb qilish va shu asosda qo‘shma korxonalarni barpo qilish, mahalliy xomashyoni to‘liq qayta ishlash qamrovini yanada kengaytirish va oqibatda O‘zbekistonning eksport salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishildi.

Xususan, yengil sanoatning to‘qimachilik tarmog‘ida ijobiy natijalarga erishildi, jumladan paxta tolasining yarmiga yaqini va ip kalavaning 45% dan ko‘prog‘i qayta ishlanmoqda. Ushbu tarmoqda respublika miqyosida birgina 2018-yilda tayyor mahsulot eksport hajmi 1,6 mlrd AQSH dollariga yetdi. Hozirgi vaqtda respublikamizda keng turdagi sifatli to‘qimachilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va ishlab chiqaruvchilarni eksport salohiyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jahon tajribasi ham shuni ko‘rsatmoqdaki, respublikamizda to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi mamlakat va uning hududlari iqtisodiy o‘shishining muhim nuqtasiga aylanishi mumkin. Bu borada O‘zbekiston jahon mamlakatlari orasida muayyan raqobat ustunligi va salohiyatga ega. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlarining fikriga ko‘ra, to‘qimachilik sanoati mamlakatimizning tovar va xizmatlar eksportida yetakchi o‘rinni egallaydi, aniqrog‘i hozirgi vaqtda tovar va xizmatlar umumiy eksportining qariyb 17,5% i mazkur tarmoq hissasiga to‘g‘ri keladi.



1-rasm. O‘zbekiston hududlarining to‘qimachilik sanoati eksporti (Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ma’lumotlari asosida).

Yuqorida keltirilgan rasmdan ko‘rishimiz mumkinki, Andijon, Namangan, Toshkent, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahri respublikamizdagi to‘qimachilik mahsulotlarining asosiy eksportchilari ekanligini ko‘rsatmoqda. Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg‘ona, Xorazm viloyatlarida kalava ip va mato eksporti bugungi kunda mazkur tarmoqning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Farg‘ona, Toshkent viloyatlari kalava ip va matolarni qayta ishlashni chuqurlashtirish va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish hisobiga to‘qimachilik sanoatining eksport salohiyatini oshirish zaxiralari ega. Rossiya, Xitoy, Turkiya va Qirg‘iziston – bizning asosiy savdo hamkorlarimiz hisoblanadi. Mamlakat to‘qimachilik mahsulotlarining taxminan 80% i ushbu mamlakatlarga eksport qilinadi¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon iqtisodiyotida Porter (1998) tomonidan “klaster” atamasi fanga ilk bora iqtisodiy kategoriya sifatida kiritilgan. Uning fikricha, klaster – ma’lum sohada faoliyat ko‘rsatayotgan firmalar va institutlarning geografik jihatdan tarmoqlararo birlashuvi hisoblanadi.

Bevosita agroklasterning mohiyatini Nastin (2015) tomonidan quyidagicha ta’riflangan ya’ni, uning fikricha “agroklaster bir vaqtda va o‘zaro hamkorlikda ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish va atrof-muhitni himoya qilishda birlashish magsadida geografik jihatdan bir joyda joylashgan, o‘zaro bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi, turli mulk egalari – oilaviy xo‘jaliklar, fermerlarning kooperativ korxonalar, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta’lim muassasalari va maslahat xizmatlaridan va bozor sub’ektlari tizimi”dan iborat.

Agroklasterlar o‘zining iqtisodiy mazmuniga ko‘ra agrosanoat majmuida tadbirkorlik agroklasteri tarzida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan ham, nazariy jihatdan uning iqtisodiy kategoriya sifatida talqin etilishi agroklasterning mohiyatini

¹ <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/tuqimachilik-sanoati-eksportni-oshirish-uchun-nimalarga-etibor-qaratish-lozim>

kengroq ochib beradi. Jumladan, Glotko (2016) tomonidan berilgan ta'rifda "agrosanoat majmuidagi tadbirkorlik agroklasteri – ushbu tizimda ma'lum darajada o'zaro aloqa qilish madaniyatiga ega bo'lgan, ishtirokchilarining umumiy iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiruvchi va iqtisodiy tamoyili asosida tashkil etilgan hududiy jihatdan alohida innovatsion yo'naltirilgan tuzilma hisoblanadi" deyilgan bo'lsa, Toxchukov (2014) esa, yanada aniqroq tarzda, "tadbirkorlik agroklasteri – pirovard natijasi iqtisodiy samara olish hisoblangan ishlab chiqarishning barcha bosqichlari – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotni sotishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona takror ishlab chiqarish tarzida mujassamlashtirgan turli faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarni birlashuvi"dan iborat ekanligi sifatida ta'riflaydi.

NATIJALAR

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan klaster tizimini keng joriy etilishi natijasida, har bir sohaning, ayniqsa, agrar sohaning lokomotiviga aylandi. Mintaqada agrar sektorning barqaror innovatsion rivojlanishining ob'ektiv shart-sharoitlari yaratilgan bo'lib, hududlarni ixtisoslashuvi hisobiga sanoatning raqobatbardosh tovarlarini ishlab chiqish; qishloq aholisini ish bilan ta'minlash muammolari, sifati va hayot darajasini yaxshilash masalalarini hal qilish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik innovatsiyalarni joriy etish orqali ekologik xavfsiz sharoitlar yaratilib ularda ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

Bu borada, hukumatimizning 2018-yil 31-mart kuni "Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 253-sonli qarori qabul qilingani e'tiborga molik. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan, ayni paytda paxta-to'qimachilik klasterlari soni ko'payib borayotgani, kelgusida paxta yetishtiruvchi respublikadagi 133 tumandan 70 tasi to'liq klaster tizimiga o'tishi, yangi tuzilayotgan klasterlar tomonidan 41 korxonalar tashkil etilib, 25 mingga yaqin ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgani ham diqqatga

sazovor. Bunda, eng muhimi, klaster korxonalari bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasida bozor munosabatlariga asoslangan holda integratsiyalashuvi natijasida paxtachilikda ilg‘or agrotexnologiyalar va uslublar joriy qilinib, zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan jihozlashga erishilmoqda.

2022-yilda O‘zbekistondan xorijga barcha to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 3,2 milliard AQSh dollarini (umumiy eksport hajmining 16,5% i), shu jumladan, ip-kalava – 1,4 milliard AQSh dollarini, tayyor trikotaj va tikuv-trikotaj mahsulotlari – 0,9 milliard AQSh dollarini tashkil etdi¹. «O‘zto‘qimachilik sanoat» uyushmasining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekistonda 134 ta paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularga paxta yetishtirish uchun 1 million gektardan ortiq yer ajratilgan, shundan 173 ming gektar (17% ga yaqin) klasterlarning o‘ziga tegishli. 2016-yilda to‘qimachilik eksporti 1,6 milliard dollardan kam bo‘lganini va asosan paxta va ip-kalavadan iborat bo‘lganini inobatga olsak, o‘shish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Buning natijasida, nafaqat xomashyo yetishtirish hajmining ortishiga, balki suv resurslarini sarfini 40-50% ga tejalishiga hamda mehnat unumdorligini 20-25% ga ortishiga erishildi. Klasterlar tomonidan mineral o‘g‘itlarning o‘z vaqtida yetkazib berilishi natijasida fermer xo‘jaliklari uchun zarur bo‘lgan o‘g‘itlar bilan ta‘minlanishiga imkoniyat yaratildi.

O‘zbekistonda 2020-yildan boshlab paxta xomashyosini yetishtirish to‘liq klaster tizimida amalga oshirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Paxta-to‘qimachilik klasterlari tomonidan 2020-2021-yillarda jami 4,8 trillion so‘mlik loyihalar amalga oshirilishi hisobiga 19 mingdan ortiq yangi ish o‘rnini yaratish rejalashtirilgan. Birgina, Namangan viloyatida tashkil etilgan “Uztex Uchkurgan”, “Uchkurgan Textile”, “Textile Finance Namangan” MCHJ paxtani qayta ishlash klaster korxonalari, sohada qator muammolarni hal qilish imkonini beradigan paxta ekiladigan maydonlar birlashtirilgan «Art Soft tex cluster» fermer xo‘jaligi muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda. “Textile Finance Namangan” MCHJ qo‘shma korxonasi MCHJ birinchi tajriba klaster korxonasi sifatida 2018-yilda Uchqo‘rg‘on

¹ <https://kun.uz/uz/news/2023/04/15/>

tumanida tashkil etilgan. Dastlabki 12 oy davomida kompaniya beshta zamonaviy chigit ekish mashinasini xarid qildi. Natijada 9 836 gektar yerga atigi 12-15 ish kunida chigit ekib bo‘lindi, holbuki ilgari bunga 20-25 kun vaqt ketardi. Mazkur klaster tizimining yana bir afzalligi shundaki, korxonalar ishlab chiqarilgan mahsulotlardan erkin foydalanadi hamda barcha xodimlarning manfaatlarini hisobga olgan holda narxlar va sotish hajmini mustaqil belgilaydi. Mahsulot sifati uchun xomashyo tayyorlovchilar ham, qayta ishlovchilar ham mas’ul. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida ish o‘rinlari ham yaratiladi. Agar butun klaster tizimi haqida gapiradigan bo‘lsak, klasterlarning shakllanishi mintaqalarning faol rivojlanishiga va mintaqalararo integratsiyaning chuqurlashuviga yordam beradi. Klaster muayyan hududga «bog‘lanadi» va uning resurs salohiyatiga tayanadi. Bir mintaqadagi nomdosh klaster shaklan va mazmunan boshqa hududdagi nomdosh klasterdan farq qiladi. Shu nuqtai nazardan ham klasterlar o‘ziga xos iqtisodiy tuzilmalar hisoblanadi. Moslashuvchanlik va bozor sohasidagi o‘zgarishlarga tez javob bera olish qobiliyati klaster tarkibiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarining raqobatdagi ustunliklarini shakllantirishda juda muhimdir.

Mamlakatda agroklaster faoliyatini yanada takomillashtirish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

- agroklaster shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va o‘rganish;
- qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini tashkil etishning klasterli shakliga o‘tishning iqtisodiy asoslari va shartlarini o‘rganish;
- mintaqalarning geografik joylashuviga e‘tiborga olgan holda mintaqaviy agroklasterlar barqaror rivojlanishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlarni ishlab chiqish;
- mintaqada agrar iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalarida qishloq xo‘jaligi faoliyatini tashkil etishning klaster shakllarining afzalliklarini o‘rganish;
- mintaqada ishlab chiqarishni tashkil qilishning klaster shaklini rivojlanish muammolari va istiqbollari doimiy ravishda kuzatish va o‘rganishdan iboratdir.

MUHOKAMA

Ammo, shularga qaramay, to‘qimachilik sanoatining rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan bir qancha omillar ham mavjud, ular:

- tarmoqning yetarli salohiyatga ega ekanligiga qaramasdan, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda texnologik zanjirning mavjud emasligi;
- milliy standartlar va to‘qimachilik mahsulotlarining sinovlari bo‘yicha laboratoriyalarning xalqaro standartlar va talablarga mos kelmasligi;
- tarmoqqa zamonaviy texnologiyalarni jalb etish ko‘rsatkichining past darajada ketayotganligi;
- xomashyo va ishlab chiqarish resurslarining nooqilona taqsimlanishi va hokazo.

Yuqorida sanab o‘tilgan kamchiliklarni bartaraf etish tarmoqdagi asosiy vazifalardan biridir. Ya’ni to‘qimachilik sanoatini jadal rivojlantirish, tarmoqqa zamonaviy texnologiyalarni jalb etgan holda, mahsulot sifatini va raqobatbardoshligini oshirish, paxta xomashyosini yetishtirishdan boshlab, unga dastlabki ishlov berish, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonini o‘z ichiga olgan integratsiya jarayonini takomillashtirish orqali klaster tizimini keng joriy etish, transport-logistika imkoniyatlarini optimallashtirish, milliy brendlarni jahon bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi va zamonaviy dizaynerlik imkoniyatlarini kengaytirgan holda eksport salohiyatini yuksaltirish hamda xalqaro investitsiyalarni keng joriy qilish orqali to‘qimachilik sanoati salohiyatini orttirishga erishiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, klaster bu – hududiy konsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog‘langan tovar va xomashyo yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrlashgan majmuadan iboratdir. Umumiy olganda klasterlashtirish – bu, bitta geografik hududda konsentratsiyalashgan va ma’lum bir aniq vazifani yechishga qaratilgan firmalar guruhi bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy aloqador bo‘lgan, jamoviy raqobatlashuvni

mustahkamlash maqsadida ishchi kuchlarini o‘zaro birlashtiruvchi jarayondir. Hududni rivojlantirish uchun klasterli tuzilmalarni shakllantirish qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy byudjet daromadlarini oshirish, vakolatlarni taqsimlash, tadbirkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro ta’sirlashish, axborot ayirboshlashni jadallashtirish va yangiliklarni targ‘ib etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining innovatsion faolligini hamda hududlar innovatsion jozibadorligini yuksaltirish, hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish kabi yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Tadbirkorlik tuzilmalari uchun klasterlar yirik investitsiya loyihalarida ishtirok etish, qo‘shimcha daromad olish, yangi bozorlarga chiqish, innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha xarajatlarni qisqartirish, innovatsion faoliyatni infratuzilmaviy ta’minlash, xodimlar malakasini oshirish, kichik korxonalarini innovatsion faoliyatga jalb etish va pirovardida raqobatbardoshlikni ko‘tarish omili hisoblanadi. Bunda har bir klaster ishtirokchisi bo‘lgan korxonalar o‘z maqsadini ko‘zlagan holda nafaqat o‘z xo‘jalik faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi, balki tadbirkorlik infratuzilmasini shakllantirishga ko‘maklashgani holda, hududda faoliyat yuritayotgan turli xildagi boshqa korxonalarining iqtisodiy o‘shishiga yordam beradi.

Xorijiy va mahalliy ekspertlarning ta’kidlashicha, hududiy klasterda ishtirok etish fan va ta’lim muassasalari uchun ham jozibador bo‘lishi mumkin, chunki bu ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko‘paytirish, sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta’minoti darajasini yuksaltirish, investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Xorijlik ekspert Maykl Porter o‘z tadqiqotlaridan kelib chiqib qayd etishicha, klaster strategiyasining ustuvorligi korxonalar (firma)lar uchun ta’minotchilarga, malakaviy xodimlarga, axborotlarga, xizmat va ta’lim markazlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishlari sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi misli ko‘rilmagan imkoniyatlar bilan izohlanadi.

Mamlakatimiz agrar tarmog‘ida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda milliy an‘analarni uyg‘unligini ta’minlagan holda faoliyat olib borish, hududlarning

geografik joylashuvi bo'yicha o'ziga xos raqobatbardosh mahsulotlar yaratish, ularni ichki hamda tashqi bozorda yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotlar darajasida olib chiqish; qishloq xo'jaligida turli mahsulotlarni ixtisoslashuvi holatida ishlab chiqarishdan iborat, shu bilan birga mulkdorlarning mavjudligi (fermer va dehqon xo'jaliklari), mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari innovatsion darajaga ega bo'lgan korxonalar, tarmoq bilan o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalarining hamkorlik va raqobatga tayyorligi, qishloq xo'jaligini tartibga solishning bozor tamoyillariga mos huquqiy-me'yoriy asoslarning shakllanganligi, xizmat ko'rsatuvchi keng qamrovli infratuzilma va yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi shu kabi vazifalarni to'liq bajarilishi muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Albatta xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jalik tarmoqlarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ular asosida yangi klasterlarni tashkil etish hamda qishloq xo'jaligidagi mavjud klasterlarning samarali ishlashini ta'minlash zarur hamda qishloq xo'jaligini barqaror rivolantirish ularning innovatsion asosda tashkil etish uchun quyidagilarni hisobga olish lozim:

- agrosanoat kompleksida integratsiyalashgan tuzilmalarni yaratish va ishlash faoliyatidan samarali foydalanish;
- boshqaruv turi, uning moslashuvchanligi va tashkilotlarning innovatsion rivolanishiga e'tibor qaratish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining ilmiy-axborot markazlaridan va ilmiy-texnik mahsulotlar ishlab chiqaradigan tashkilotlar bilan bo'g'liq holda faoliyatini doimiy olib borish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tadqiqot va rivojlantirish natijalariga innovatsion ta'sirchanlik darajasi oshirish;
- qishloq xo'jaligi tashkilotlari va ularning sanoat tarmoqlarining moliyaviy holatini barqarorligini oshirish;
- agrosanoat kompleksining muayyan tarmog'ida qishloq aholisini ish bilan ta'minlash darajasi oshirish kabilardan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Soliyev A.S. Hududiy majmualarning nazariy asoslari. T., Universitet, 1997.
2. Porter M. Konkurensiya. Moskva: Vilyams, 2005. — 608 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.09.2019-yildagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4453-son qarori.
4. “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari.
5. “Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti” (PMTI) ma’lumotlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.
7. Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.